

# MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING OILA BILAN ISHLASHDAGI HAMKORLIGINING ISH SHAKLLARI VA UNING MAZMUNI

**Rahmonqulova Xolida Bosimovna**  
**JDPI o'qituvchisi**

**Xo'roza Xumora**

**530/20 guruh talabasi**

**Annotasiya :** Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi ish shakllari mazmuni haqidagi mavzu yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila, uzviylik, bola tarbiyasi, ota-ona, ish shakllari, shart – sharoitlar, maktab, MTT, oila, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash

**Аннотация:** В данной статье рассматривается содержание дошкольного воспитания и семейного сотрудничества

**Ключевые слова:** Дошкольная организация, семья, членство, воспитание детей, родители, формы работы, условия, школа, ДОО, семья, подготовка детей к школьному обучению

**Annotation:** This article discusses the content of preschool education and family collaboration.

**Keywords:** Preschool organization, family, membership, child rearing, parents, forms of work, conditions, school, MTT, family, preparation of children for school education

Yosh avlodda komillik sifatlarini tarbiyalashdek ulug' maqsad yo'lida ularning ong ufqlarini kengaytirish, sog'lom dunyoqarash va e'tiqodni shakllantirish, shuningdek, ma'naviyatga yo'g'rilgan xulq-atvorini tarkib toptirish bugungi ta'limning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Hozirgi sharoitda bolada har tomonlama rivojlangan barkamol insonga xos sifatlarni shakllantiradigan ta'lim-tarbiya berishning maqsad va vazifalari ma'naviy boyluk, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikka esh bo'lgan ijtimoiy faollikni uyg'unlashtirishdir. "Maktabgacha

ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsini shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi. Aynan maktabgacha davrda bolaning kelajakdagi barcha faoliyat turlarida va umuman hayotda muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beruvchi umuminsoniy xislatlari shakllanadi".

Prezidentimiz Sh.Mirziyev tomonidan sohaga oid islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davr talablari va standartlari asosida rivojlantirib borilmoqda. Bu kabi yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, bolalarni yetuk shaxs sifatida kamol topishida nafaqat soha vakillari, ayni paytda keng jamoatchilik – oila va mahallaning ham o'rni beqiyos. Bejiz xalqimizda "bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan naql shakllanmagan.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonunida Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari ko'rsatib o'tilgan.

Xususan:

- har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;
- har bir bolaning iste'dod nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;
- maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi;
- maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi;
- bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv;
- maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi;
- ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;
- ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;

– maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'lig'iga belgilab berilgan.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari:

– har bir bolaning maktabgacha ta'lim va tarbiya olishga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash;

– bolalarning maktabgacha ta'lim va tarbiyaga to'liq qamrab olinishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

– bolaning rivojlanishida, maktabgacha ta'lim va tarbiya olishida oilaga har tomonlama yordam ko'rsatish;

– bolalarning, shu jumladan alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

– ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish hamda rivojlantirish;

– maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

– maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirishga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish;

– maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

– xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'sib kelayotgan avlodning jamiyat qoidalarini to'laqonli qabul qilishi, o'z davrining yaxshi va kerakli kishisi bo'lib yetishishi oilaning boshqa rasmiy tarbiya maskanlari bilan o'rnatadigan to'g'ri munosabatlariga bevosita bog'liq. Ijtimoiylashuv jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki muassasa xodimlari bolaning ota-onasi bilan bevosita, har kuni muloqotda bo'ladi. Undan tashqari,

tarbiyachining o`zi ota-onaga nisbatan ikki xil holatda – rasmiy tarbiyachi va samimiy, e`tiborli suhbatdosh tarzida namoyon bo`ladi. Lekin oila a`zolari bilan maktabgacha ta`lim tashkilotlari xodimlarining bitta bola tarbiyasidagi ishlarini uyg`unlashtirish, yaxshi samaraga erishish unchalik oson ish emas. Chunki ikkala tomon bir-biriga ishongan taqdirdagina ular o`rtasida samimiy muloqot bo`lishi va tarbiyada ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Bunday muvaffaqiyatli munosabatlarning bir qator psixologik tamoyillarini ajratish mumkin:

– -avvalo, tarbiyachi ota-onaga farzandini faqat yaxshi tomondan ko`rsata bilishi, bolaning obrazi ota-ona uchun ijobiy bo`lsagina, ular farzandini xonadonidan yaxshi kayfiyat bilan olib keladi va uyga qaytayotganda ham tarbiyachi bilan iliq xayrlashadi. Bolaning ham uni hurmat qilishi va faoliyatlarda aytganlariga quloq tutishi lozimligiga o`rgata oladi. Aks holda ota-ona og`rinib bolasini maktabgacha ta`lim tashkilotiga olib keladi va uni tartiblarini mensimaslikka o`rgatib qo`yishi mumkin. Demak, birinchi tamoyil – ota-onaga maktabgacha ta`lim muaasasidagi bola to`g`risida ijobiy obraz yarata olish;

– maktabgacha ta`lim tashkilotlarining tarbiyachilari ota-ona bilan kundalik muloqotda bolaning erishgan yutuqlari, qanday bilim, malaka va ko`nikmaga ega bo`lganini ko`rsata olishlari lozim. Masalan, tengqurlari bilan muloqotda o`zini qanday tutgani, do`stlari mavjudligi, berilgan she`r yoki boshqa topshiriqni bugun aynan qay tarzda o`zlashtira olganligi, kimga qanday yordam bera olgani haqida norasmiy tarzda ma`lumot bera olishi kerak. Ikkinchi tamoyil – bolaning yutuqlaridan ota-onani xabardor qilib borish. Bu esa ota-ona bilan tarbiyachining hamkorligini mustahkamlaydi;

– tarbiyachi bolaning uydagi xulqi va yutuqlari yoki kamchiliklarini bilib turishi shart. Bu ota-ona bilan ishonchga asoslangan dialog jarayonida aniqlanadi. Chunki tarbiyachi bolaning uyda qanday o`zini tutishi, odat va qiliqlarini bilmasa, unga to`g`ri pedagogik yondashuvni tashkil etolmaydi. Uchinchi tamoyil – bolaning oiladagi, uydagi maqomini bilish.

Tarbiyachi ota-onalar uchun tizimli ravishda targ'ibot ishlarini amalga oshirishda quyidagilarga amal qilishi lozim:

1. Pedagogik targ'ibot ishlari hayot, jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog'lab olib borilishi lozim. Targ'ibot orqali keng jamoatchilikka bolalarni har tomonlama tarbiyalash masalalari, ularni amalga oshirish yo'llari, ilmiy asoslangan usullari haqida tushunchalar berilishi maqsadga muvofiq.

2. Bola tarbiyasida oila tajribasining imkoniyatlari, aksincha, bola tarbiyasida yo'l qo'yilayotgan xatoliklar va ularning oldini olish, bartaraf etish borasida targ'ibot ishlarini olib borish yaxsha samara beradi.

3. Ota-onalarning bilim saviyasi turli darajada ekanliklari hisobga olinib, ular uchun tayyorlangan axborot materiallari ishonarli, ko'rgazmali va ularning his-tuyg'usiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar bilan hamkorlik ishlari tizimli ravishda olib borilgandagina oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o'rtasidagi birlik o'rnatilishi mumkin. Bolada ilk bolalik davrining dastlabki yili kattalarga bog'liqlik (itoat qilish mexanizmi) va ularga qaramlik shakllangan bo'lsa, bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davrda esa bolaning xatti-harakatida va fikr yuritishida mustaqillikning dastlabki belgilari rivojlanadi. Bu davr boladagi amaliy bilimlarning keyingi yo'lini belgilaydi. Bolalar har bir sohada o'zlarini sinab ko'rishga intiladilar. Ayni shu davrda predmetlarni o'zlashtirish, amaliy xatti-harakatlarni bajarish, o'z tanasini boshqarish mexanizmlari shakllanadi. Agar bu davrning imkoniyatlari boy berilsa bolada tegishli qobiliyatlar rivojlanmay qolishi mumkin. Mazkur davr bolaning biror-bir ishni bajara olish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng qulay davrligini ota-onalar doimo yodda tutishlari lozim.

#### **Ota-onalar uchun muhim tavsiyalar:**

1. Bolalar bilan so'zlashganda jummalarni to'g'ri talaffuz eting. Agar bola biror so'zni noto'g'ri talaffuz etsa, unga «bu noto'g'ri» demang, uning o'rniga so'zning to'g'ri talaffuzini takrorlang.

2. Ilk bolalik yoshida bolalar barcha narsaga qiziquvchan bo'ladilar. Ularni

qiziqtirgan savollarga imkon qadar batafsil javob berishga harakat qiling.

Yodingizda bo'lsinki, agar kichkintoyingizni qiziqtirgan savolga javob berishdan

3. qochsangiz, undagi bilishga bo'lgan qiziqishlarni so'ndirib qo'yishingiz mumkin.

Xulosa sifatida aytish joizki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoni qanchalik sifatli va yuqori darajali bo'lsa, shuningdek, oila bilan hamkorlik shakllari tizimli amalga oshirilsa, farzandlarimiz ta'limning keyingi bosqichlarida ham qiynalmasdan bilimlarni o'zlashtiradilar. Shunday ekan, ta'lim jarayoniga hukumatimiz tomonidan sohaga qaratilayotgan e'tiborni e'zozlashimiz va undan to'g'ri, samarali foydalanishimiz lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi Qonuni. QHMMB: 03/19/595/4160-son. 17.12.2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori.
3. Kilichova, M. K. (2021). Issues of formation of ecological knowledge and culture in preschool educational institutions. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 666-670.
4. Хамраева, Е. (2021). NUTQ O'STIRISH MASHG'ULOTLARIDA BOLALARNI IJODIY FIKRLASHGA O'RGATISH YO'LLARI. *Мактабгача таълим журнали*, 3 (журнал дошкольного образования). Получено с <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/3904>
5. **MTT VA OILA HAMKORLIGIDA BOLALARNI MILLIYLIK RUHIDA TARBIYALASH** D Toshtemirova - *Мактабгача таълим журнали*, 2021 **Все версии статьи (29)**